



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## SADRIDDIN SALIM BUXORIY SHE'RLARIDA FOLKLOR AN'ANALARI

**Saidova Mohinur**

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti*

*4-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada shoir Sadriiddin Salim Buxoriy she'rlarida uchraydigan xalq og'zaki ijodi an'analari va ularning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan jihatlar bayon etilgan.*

**KALIT SO'ZLAR:** *Folklor, xalq og'zaki ijodi, an'ana, rivoyat, mifologiya, istiora, obraz, qahramon, mif.*

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqea hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi.

Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, kad. odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qad. mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, „Alpomish“, „Kuntug'mish“, „Rustamxon“ hamda „Go'ro'g'li“ turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq, afsonalari va ertaklaridagi Mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi Mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi.

O'zbek folklorida „Avesto“ asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog'liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol „piri“ sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang'och ota, Choymomo; xalq taqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, AhmanDahman; momaqaldirok, va chaqmoq „egasi“ Guldur momo; afsonaviy paxdavonlar sifatida tasvirlanuvchi Odami Od, Olang'asar, Doroko'z; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o'zida ifoda etgan alvasti, yalmog'iz kabi kulgina Mifologik obrazlar mavjud.

Shoirning quyidagi she'rida o'zbek xalq og'zaki ijodining mifologik obrazlaridan biri bo'lgan Haydar shamol obrazi mavjud.

*“Kokilingni qimirlat, Haydar!*

*Bolangni suv eltmoqda, Haydar!*

*Seni uyqu eltmoqda, Haydar!”*

*Bobo tongdan bug'doy shopirar.*

*“Bobo, men ham Haydar bo'layin,*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



*Kokil nuqra yo zar bo'layin.  
Chorlasangiz yuboray epkin,  
Bobo, men ham Haydar bo'layin..."*

*Shamol shoshib kelmoqda g'ir-g'ir,  
Xirmonga don oqmoqda shir-shir.  
Shamol bo'lib yugurar go'dak,  
Xirmonga don oqmoqda shir-shir.*

Bilamizki, qadimda odamlar shamol chaqirish, yomg'ir va qor kabi tabiat hodisalarini chaqirish uchun o'zlari she'rlar to'qib, hirgoyi qilib yurishgan.

Ushbu she'rda ham shoir Haydar shamolni chaqirish an'anasini ifodalagan.

*Kelgin.*

*Qum uylarni yana quraylik –  
Taqdirning ustidan kulaylik.*

*Kelgin.*

*Bolalikka qaytaylik yana,  
"Oq terak"ni aytaylik yana.*

*Kelgin.*

*"Bizdan sizga, degin, kim kerak?"*

*Xatosini tuzatsin yurak...*

Ushbu she'rda bolalar xalq og'zaki ijodiga mansub "Oq terakmi ko'k terak" she'ri keltirilgan.

Darhaqiqat, shoir ijodida yo'q bo'lgan mavzuning o'zi yo'q, folklor an'analari ham shular jumlasidandir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimova M.S. Sadridin Salim Buxoriy she'riyatida badiiy san'atning o'rni. Filologiyaning umumnazariy masalalari Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro, 2021-yil. B.390-393

2. Azimova M.S. Sadridin Salim Buxoriy – tarjimon. "Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Guliston, 2022-yil 15-16 aprel. B.165-169

3. Azimova M.S. Sadridin Salim Buxoriy ijodida adabiy etnograflar ifodasi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari materiallar to'plami. VI, 2014. – B. 295-296.

